

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tabiiy landshaf omilining saqlanishi va eko-estetik jihatdan barqarorlikga olib keladi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki tabiatdan foydalanish – tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va qayta tiklashga qaratilgan turli faoliyatlar majmuasi bo'lib, pirovardida atrof muhitga ta'sir ko'rsatadigan hamda sanoat, qishloq xo'jaligi, noishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik tadbirlarining keng va murakkab tizimidir.

Shaharsozlikda tabiiy landshaftlarni rivojlantirishda ekologik va estetik muammolarni hal etishning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Toshkent viloyati intensiv urbanizatsiya namunasi sifatida kompleks yondashuvni, jumladan, tabiiy resurslarni saqlash va shahar aholisining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan innovatsion yechimlarni joriy etishni talab qiladi. Landshaft arxitekturasini bu jarayonda asosiy vosita bo'lib, shahar infratuzilmasini rivojlantirish va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ilmiy innovatsiyalardan foydalanish nafaqat dolzarb muammolarni hal etishga, balki kelgusida mintaqaning barqaror va barkamol rivojlanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va me'moriy xujjatlari.
2. Forman, R. T. T. (1995). *Land Mosaics: The Ecology of Landscapes and Regions*. Cambridge University Press.
3. Sporn, A. W. (1984). *The Granite Garden: Urban Nature and Human Design*. Basic Books.
4. Abdulqosimov A.A., Abbosov S.B. Cho'llarning vujudga kelishi, shakllanishi va geografik tarxalishi 2007.
5. Abolin R.I. Osnovi yestestvenno – istoricheskogo rayonirovaniya Sovetskoy Sredney Azii. 1929.

BOSHLANG'ICH SINFLAR SAMARADORLIGNI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Madaliyeva Farida Tursunaliyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
talabasi madaliyevafarida7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda boshlang'ich ta'limning samaradorlikni oshirishda zamonaviy texnologiyalardan, innovatsion yondashuvlardan samaraliy foydalanish va kreativ yondashuvlarni yanada takomillashtirish, interaktiv metodlardan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'z: tarbiya, texnologiya, mehnat, interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalar

Madaliyeva Farida Tursunaliyevna
Tashkent University of Applied Sciences
student madaliyevafarida7@gmail.com

Abstract: *This article highlights the benefits of effective use of modern technologies, innovative approaches and further improvement of creative approaches, interactive methods and modern technologies in increasing the efficiency of primary education in schools.*

Key words: *education, technology, work, interactive methods, modern technologies*

KIRISH.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgani hozirgi kunda ta'limning zamonaviy pedagogikalarga asoslangan metodlar va shakillarga ehtiyoj kuchayib, yangi texnika taraqqiyoti muvaffaqiyati faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodga bilim berishda zamonaviy texnologiyalardan tarbiya berib innovatsion yondoshuv va tinteraktiv metodlardan foydalanib ta'limda mehnat va tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, ta'lim mazmunini yaxshilashda tarbiya berib mehnatga yo'naltiri pedagogik texnologiya vositalarini qo'llashda ta'lim samarasini oshirish va o'quvchilar hayotida texnologiyali yondoshuv albatta samarasini beradi degan umiddaman chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim samarasini oshirishda nafaqat bilimi balki mustaqil fikrlash shu bilan birga zamonaviy texnologiya yondashuvi va bilim sifatini oshirishda boshlang'ich sinflarda katta o'rin egallaydi va asqotadi degan umiddaman.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yul oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

"Kim birinchi", "Davom ettir", "Kim zukko, kim tezkor", „Sehrli quti“, Kim topqir“, „ Kim o'qituvchi“, „ Ko'rganini bilasanmi“ kabi didaktik o'yin va ta'limiy mashqlarlardan keng foydalanish zarur

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. O'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish. Ushbu texnologiya o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan narsanng ko'p xilma-xil ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi. Bu texnologiya

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

yettita bosqichda amalga oshiriladi. O'quvchilar buni juda qiziqib bajaradilar va ularning yodida mavzu uzoq saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi, innovatsion g'oyalardan va yangi pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, ularning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Bulardan samarali foydalanish o'qituvchidan juda yuksak pedagogik mahorat talab qiladi. Biz o'qituvchilar har doim jajji o'quvchilarimiz uchun doim izlanishda davom etishimiz kerak zero qiziqarli metodlardan qo'llashda ta'lim samarasini oshirish davr talabidir. Har bir o'qituvchi dars jarayonidan oldin qo'llashi mumkin bo'lgan texnologiyani albatta darsdan oldin puxta rejalar asosida mukammal o'rganmog'i kerak bo'ladi. Dars jarayoni uchun samaradorligi qanchalik darajada ekanligimi ko'rib chiqilishi lozim, chunki har bir texnologiya (metod) dars samaradorligini oshirib berishga xizmat qilishi darkor. Texnologiyani qo'llashda kichik guruhlar bilan ishlanganda har bir o'quvchini dars jarayoniga qamrab olish oson bo'ladi. Katta guruhlarda esa har bir o'quvchini qamrab olish qiyin bo'ladi, yaxshi o'zlashtiradiganlar topshiriqni tez bajarib qo'ygabda qolgan guruhdagio'quvchilar topshiriqni bajarish tartibini tushunolmay qolishlari ham mumkin bo'ladi.

Har qanday pedagogik texnologiya dars davomida muayyan mavzu mohiyatidan kelib chiqib, mantiqiy izchillikda rivojlantirilib borilishi lozim. Dars jarayonlarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'qituvchi nazariy ma'lumotlarni berish bilan bir qatorda, o'quv materiallarini zamonaviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar individual ta'sir etadigan usul sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi, mustaqil fikr yuritish, ijodkorlik faoliyatining rivojlanishi va o'zlashtirishda yuqori samaradorlikka erishishini belgilab beradi. 1. Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati,

birbirini to'liq tushuntirishga asoslanadi.

2. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi- dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim.

3. Bunda o'qituvchi faqat yo'l yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi vazifasini bajaradi.

4. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

"Kayfiyat haqida axborot" metodi

Ob- havo hayvonlar qushlar yoki o'simliklar kabi mavzularga murojat qilib o'zingizni qanday his qilayotganingizni bildiring.

Narsalarga yoki jonzorlarga murojat qilgan holda kaytiyatingizni qandayligini bildiring.



Masalan:

" o'tgan kun juda bulutli edi, ammo endi quyosh yorisha boshladi".

"Men o'zimni toshbaqa kabi his qilayapman sekin asta harakatlanayotgan"

" Men mashg'ulotga kirganimda kichgina va ko'zga taslanmaydigan chumchuqdek edim, ammo endi burgutdek his qilayapman.

Ushbu metod orqali o'quvchilarning kayfiyatlarini bilishimiz mumkin bo'lib, shu bilan birgalikda o'quvchilarning mustaqil fikrlilikga, ijodkorlik xislatlarini rivojlantirish mumkin.

XULOSA: zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. O'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish. Ushbu texnologiya o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan narsaning ko'p xilma-xil ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatish ta'lim sifatini oshiradi. Biz qanchalik o'quvchilarga sifatli bilim bersak bu bizning yutugimiz va o'quvchilar ilmiy salohiyatli shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim samarasini oshirishda nafaqat bilimi balki mustaqil fikrlash shu bilan birga zamonaviy texnologiya bilimlar bilan ham hamnafas yoshlar yetishib chiqadi deb o'yliman. O'quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag'batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo'l keladi. Har bir o'qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tsa bu o'z natijasini beradi. Mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga yetishib chiqadi va bunga degan umiddaman.

ZAMONAVIY DUNYODA AYOLLAR VA HUNARMANDCHILIK



Abdullayeva Shahnoza Zafar qizi 1996-yil 16 - iyunda Samarqand viloyati Tayloq tumanida tavallud topgan. 2023-yil Samarqand Davlat Chet tillar institutini tamomlagan. 2025-yil yanvar oyida "Scientific Academy" ilm-ma'rifat markazining MDH davlatlari miqyosda tashkil etilgan "Fidoyi xizmatlar uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Hozirda uyda bola parvarishi va hunarmandchilikning sovunli gullar sohasida bir qancha shogirdlari va shaxsiy biznesi bor.